



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdamova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitora Baxodir qizi	
IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLiyALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOIYILLARI.....	68
Gapparov Azim Qayumovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....	72
Zaripov Shoxboz Alijon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	75
Kolmatova Asila Menglimurod qizi	
РОЛЬ GREEN BONDS В МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	81
Н.Т. Бекназарова	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT.....	86
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
NORASMIY IQTISODIYOTNING MAVJUDLIGINING NAZARIY MASALALARI VA UNI ANIQLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	93
Alimardonov G'ayratjon Nuraliyevich	
DIGITAL TWIN-BASED DECISION SUPPORT FOR COST OPTIMIZATION AND RISK MANAGEMENT IN INFRASTRUCTURE SYSTEMS.....	99
Nelyufar Umarovna Dadabayeva	
PAXTA BO'LAKCHASINING OG'MA TO'RLI YUZA SIRTI BO'YLAB HAVO OQIMI TA'SIRIDAGI HARAKATINING MATEMATIK MODELI.....	108
Karimov Abdusamat	
АДАПТИВНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ К ВНЕШНИМ РИСКАМ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИМ ТЕНДЕНЦИЯМ.....	115
Бабаджанов Шухрат Атахмович	
“TIBBIYOT BOZORINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI UCHUN MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI”.....	120
Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o'g'li	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BANDLIKKA TA'SIRI.....	124
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	



XORAZM VILOYATIDA ETNOGRAFIK TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING AHAMIYATI	129
Ro'zimatova Shaxlo Baltaboy qizi	
THE FEAR OF MISSING OUT (FOMO) EFFECT IN ADVERTISING AND ITS NEUROPSYCHOLOGICAL IMPACT ON IMPULSE BUYING	134
Negmatov Nodir Nozimovich	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA TENDENSIYALARI TAHLILI.....	139
Aytiyeva Sevara	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA O'ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI	149
Abdullayeva Matluba Nematovna, Nuriddinov Kamoliddin Faxriddin o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	155
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
POPULATION IMPACT ON CONSUMER CULTURE AND NATIONAL ECONOMIC GROWTH.....	160
Rustamov Sherov Oblokulovich	
AVTOTRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA ULARNI YAXSHILASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	164
Laylo Akbarova, Komolov Adxam Dilshod o'g'li	
MODELING THE DIFFUSION OF DIGITAL BANKING ADOPTION IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM TBC BANK USING THE BASS DIFFUSION MODEL AND A HYBRID REGRESSION APPROACH	169
Feruza Nabieva	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK XARAJATLARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH VA BAHOLASH	176
Rabbimov Elbek Abdulloyevich, G'afforov Ilhom Ilyosjonovich, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
O'ZBEKISTONNING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING INTEGRALLASHGAN MODELI.....	183
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-KONSEPTUAL ASOSLANISHI.....	188
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISH VA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	194
Turg'unov Nodirbek Muminjanovich	
SANOAT KORXONALARI TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI	198
Jabborov Elbek Erkin o'g'li	
SOLIQ STAVKALARINI TABAQALASHTIRISHNING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	202
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
MINTAQALAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISHNI TA'MINLASHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	208
Egamov Temur Muzaffarovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLYAVIY RAG'BATLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	213
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURLIGI.....	217
Achilova Firuza Kurbanovna	
INVESTITSIYALARNI JALB ETISH ORQALI MAXSUS IQTISODIY ZONALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	222
Ergashev Olim	



KICHIK BIZNES INNOVATSION FAOLIYATINING RIVOJLANISHIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR	227
Amirov Zubaydulla Toir o'g'li	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	233
Isakjanova Saboxat Muhamedovna	
KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA AKSIYADORLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	238
Xakimov Uchkun Xamitovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MILLIY MAKROIQTISODIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	242
Mardanova Ra'no Isakovna	
XUSUSIY VA DAVLAT SHIFOXONALARI UCHUN RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI QIYOSIY TAHLIL	246
Yakubov Temur G'anibekovich	
RAQAMLI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA RESURS SAMARADORLIGI VA IQTISODIY NATIJADORLIK MODEL	250
Ziyodullayev Qahramon	
"MILLIY TURIZM SITUATSION-MONITORING MARKAZI" VA "YASHIL TUROPERATORLAR" FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI	254
Toshev Akmal Salimovich	
RISK-MENEJMENT VA MOLIYAVIY BARQARORLIK O'ZARO BOG'LIQLIGINING KONSEPTUAL MODELINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI	261
Madaminov Bekzod Allayarovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT: BAHOLASH METODOLOGIYASI, DINAMIKASI VA QISQARTIRISH ISTIQBOLLARI (1996 – 2026-YILLAR TAHLILI)	266
Djumanova Rano Fayzullayevna	
OLIY TA'LIM SIFATINI BAHOLASHDA MAJMUALI DIAGNOSTIK MODELNING AMAL QILISH XUSUSIYATLARI	272
Xo'jaxonov Ma'rufxon Xamidxonovich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	278
Vafiyev Raxim Xalimjonovich	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	282
Nigora Nurmatova	
BANK SEKTORINING INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISHDAGI STRATEGIK O'RNI	287
Abdumavlonov Abdumutal Abdumajid o'g'li	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA UZOQ MUDDATLI MOLIYAVIY INVESTITSIYALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	291
Allabergenova Nilufar Shermetovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA TA'MINOTLI YIRIK KREDITLAR ASOSIDA QIMMATLI QOG'OZLAR CHIQUARISH ORQALI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI	298
Ahmedov Akbarali Sultonmurodovich	
"MINTAQA SANOATI SALOHİYATIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI"	306
Abdinazarov Xusan Shaymanovich	
BUDJET TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA MAJBURIYATLAR: MAZMUNI, TURLARI VA TARKIBI	309
Jabbarova Charos Aminovna	
ATROF-MUHIT VA EKOLOGIK IQTISODIYOT: TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RESURLARDAN OQILONA FOYDALANISH VA UNING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH	316
Alikulov Samar Abdirashidovich	
O'ZBEKISTON TURIZM INDUSTRIYASI RIVOJLANISHIDA FORSAYT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH	322
Turdibekov Xasan Ibragimovich	
АНАЛИЗ ДЕБИТОРСКОЙ И КРЕДИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ХОЗЯЙСТВУЮЩЕГО СУБЪЕКТА	329
Камолова Феруза Кахрамоновна	



TASHQI QARZNING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI: QARZ BARQARORLIGINI BAHOLASH MODELLARI ASOSIDA O'ZBEKISTON MISOLIDA TAHLIL	333
Olloyorova Kumushoy Ahmad qizi, Tashmuxamedova Yayra Atxamovna	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQLARNI TARTIBGA SOLISHNING TAHLILI	339
Kudiyarov Kishibay Ramatullaevich	
KORXONALAR FAOLIYATINING IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORIJ TAJRIBASI	343
Iminova Nargizaxon Akramovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI BOSHQARISHDA RISKLAR VA RISK-MENEJMENTNING O'RNI	350
Xalikulova Shirin Utkir qizi	



SUG'URTA KOMPANIYALARINING TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI BOSHQARISHDA RISKLAR VA RISK-MENEJMENTNING O'RNI

Xalikulova Shirin Utkir qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
tayanch doktorant (PhD),
rinakhalikulovamz@gmail.com

Annotatsiya. Tadqiqot sug'urta tashkilotlarining to'lovga qobiliyatligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashda riskka asoslangan tartibga solish yondashuvining shakllanishi hamda rivojlanish jarayonlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Ishda sug'urta sektorida ma'muriy usullardan moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarga o'tish tendensiyalari, makroprudensial siyosatning ahamiyati hamda Solvency II xalqaro standartlari doirasida joriy etilayotgan talablar yoritilgan. Tadqiqot natijalari sug'urta tashkilotlarida integratsiyalashgan risk-menejment tizimini rivojlantirish va moliyaviy barqarorlikni baholashda zamonaviy yondashuvlarni qo'llash zarurligini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: sug'urta bozori, to'lovga qobiliyatlilik, moliyaviy barqarorlik, riskka asoslangan yondashuv, makroprudensial tartibga solish, Solvency II, risk-menejment, kapital yetarliligi, moliyaviy nazorat, sug'urta tashkilotlari.

Abstract. The study analyzes the formation and development of a risk-based regulatory approach to ensuring the solvency and financial stability of insurance companies. It examines the transition from administrative methods to financial and economic mechanisms, highlights the role of macroprudential policy, and considers the requirements of the Solvency II standards. The results justify the need to develop an integrated risk management system and apply modern approaches to assessing insurers' financial stability.

Key words: insurance market, solvency, financial stability, risk-based approach, macroprudential regulation, Solvency II, risk management, capital adequacy, financial supervision, insurance companies.

Аннотация. Исследование посвящено анализу формирования и развития риск-ориентированного подхода к регулированию в обеспечении платёжеспособности и финансовой устойчивости страховых организаций. В работе рассматриваются тенденции перехода от административных методов к финансово-экономическим механизмам, раскрывается значение макропруденциальной политики и требований стандартов Solvency II. Результаты исследования обосновывают необходимость развития интегрированной системы риск-менеджмента и применения современных подходов к оценке финансовой устойчивости страховщиков.

Ключевые слова: страховой рынок, платёжеспособность, финансовая устойчивость, риск-ориентированный подход, макропруденциальное регулирование, Solvency II, риск-менеджмент, достаточность капитала, финансовый надзор, страховые организации.

KIRISH

To'lovga qobiliyatlilik va moliyaviy barqarorlikni baholash hamda tartibga solish sohasida kuzatilayotgan evolyutsion rivojlanish jarayonining asosiy jihati shundan iboratki, sug'urta faoliyatini tartibga solishda bosqichma-bosqich ma'muriy usullardan moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarga o'tish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Mazkur jarayon yangi tartibga solish standartlarining shakllanishi va amaliyotga keng joriy etilishi bilan bir qatorda, riskka asoslangan yondashuvning tatbiq etilishida yaqqol namoyon bo'lmoqda¹.

Hozirgi davrda davlat boshqaruvi tizimida risklarni inobatga olgan holda tartibga solish modeliga o'tish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida shakllanmoqda. Ushbu yondashuv nafaqat iqtisodiyotning real sektoriga, balki moliya tizimiga ham keng joriy etilmoqda. Shu bois "riskka asoslangan yondashuv" tushunchasi turlicha talqin qilinayotgan bo'lsa-da, uning mazmuni risklarni izchil va tizimli baholashga tayanuvchi hamda ularni boshqarish mexanizmlarini o'zida mujassam etuvchi tartibga solish modelini anglatadi².

¹ https://www.cbr.ru/Content/Document/File/41412/concept_solvency_II.pdf

² <http://igsu.ranepa.ru/analytics/p25099/>



Moliyaviy sektorning o'ziga xos xususiyatlari mazkur yondashuvni qo'llashda alohida talablarni yuzaga keltiradi. Buni 2007–2009-yillardagi global moliyaviy inqiroz tajribasi ham tasdiqlaydi. Ushbu inqiroz moliya bozorlarida tizimli risklarni yetarli darajada baholash va boshqarish mexanizmlarining takomillashtirilishi zarurligini ko'rsatdi. Natijada nazorat organlari faoliyatida makroprudensial siyosat ustuvor yo'nalishga aylandi. Shu bilan birga, maqbul risk darajasini saqlash, asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar va risk omillarini doimiy monitoring qilish dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

Bugungi kunda sug'urta sektori an'anaviy risklar bilan bir qatorda yangi turdagi risklar ta'siriga ham duch kelmoqda. Sug'urta kompaniyalari nazorat organlari va xalqaro standartlar talablariga muvofiq faoliyat yuritishi zarur bo'lib, mazkur talablar moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan. Shu bilan birga, ayrim sug'urtalovchilarda, xususan sug'urta bozori rivojlanish bosqichida bo'lgan mamlakatlarda, risk-menejment tizimlarini yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sug'urtalovchilarning faoliyat doirasi so'nggi yillarda sezilarli darajada kengaydi. U endilikda faqat sug'urta mukofotlarini yig'ish, sug'urta to'lovlarini amalga oshirish, qayta sug'urtalash siyosatini yuritish va moliyaviy hisobotlarni taqdim etish bilan bog'liq an'anaviy jarayonlar bilan cheklanib qolmaydi. Moliya bozorlaridagi yuqori darajadagi o'zgaruvchanlik, yangi moliyaviy instrumentlarning paydo bo'lishi, natijada potensial risklar doirasining kengayishi hamda texnologik taraqqiyot risklarni boshqarish jarayonini yanada murakkablashtirmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda risklarni tasniflashning yagona, umumqabul qilingan tizimi mavjud emas. Bu holat risklarni tadqiqotning maqsadi va obyekti xususiyatlaridan kelib chiqib, turli nazariy yondashuvlar asosida talqin qilish imkonini beradi.

Sug'urta kompaniyasining to'lovga qobiliyatligini boshqarish nuqtai nazaridan risk keng ma'noda dinamik barqarorlik holatini yo'qotish ehtimoli hamda kutilayotgan natijadan og'ish sifatida talqin qilinadi. Bunda risk nafaqat zarar ehtimoli, balki moliyaviy ko'rsatkichlarning rejalashtirilgan darajadan chetlanishi sifatida ham baholanadi.

Xorijiy amaliyotda sug'urta va qayta sug'urta faoliyati olib boriladigan tashqi muhitning barqarorligi moliya bozorlarida keskin tebranishlarning yoki sug'urtalovchi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa tashqi zarbalarning mavjud emasligi bilan izohlanadi. Shu bois sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi tashqi muhit barqarorligi bilan uzviy bog'liq holda baholanadi.

Makroprudensial tartibga solish doirasida risk zarar bilan tenglashtirilmaydi, balki strategik maqsadlarga erishish jarayonining istalgan bosqichida belgilangan natijadan ruxsat etilmaydigan darajada salbiy og'ish yuzaga kelishi ehtimoli sifatida qaraladi. Strategik risklarni boshqarish tizimi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarni maqbul darajada ushlab turishni nazarda tutadi. Bu esa muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimini risk-menejment tizimiga integratsiya qilish hamda maqsadlar xaritasini shakllantirishni talab etadi. Mazkur yondashuv, ayniqsa uzoq muddatli istiqbolda risklarni minimallashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, riskning miqdoriy bahosi strategik va operatsion qarorlar qabul qilishda muhim indikatorlardan biriga aylanadi.

Solvency II Direktivasi 101-moddasiga muvofiq, zarur kapital miqdorini hisoblashda quyidagi asosiy risklar inobatga olinadi:

- hayotni sug'urtalashdan tashqari sug'urta turlarida anderryayting riski;
- hayotni sug'urtalash sohasidagi anderryayting riski;
- tibbiy sug'urtadagi anderryayting riski (health underwriting);
- bozor riski;
- kredit riski;
- operatsion risk (shu jumladan huquqiy risklar yoki qonunchilik talablariga rioya etmaslik bilan bog'liq risklar; bunda strategik va reputatsion risklar alohida toifada ko'rib chiqiladi).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy bilishning umumqabul qilingan nazariy va amaliy usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi sug'urta tashkilotlarining to'lovga qobiliyatligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashda riskka asoslangan yondashuvni o'rganishga qaratilgan tizimli yondashuvga asoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro Sug'urta Nazaratchilari Assotsiatsiyasining ishchi hujjatlari hamda Yevropa Sug'urta Qo'mitasi tomonidan taklif etilgan yondashuvlarga asoslanib, yanada kengroq risklar tasnifini ajratish mumkin. Mazkur tasnif sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini kompleks baholash imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval. Sug'urta kompaniyalariga xos bo'lgan risklarning tasnifi³

texnik	investitsion	notexnik
Tariflarning yetarliligi	Aktivlar qiymatining pasayishi bilan bog'liq xavf	Operatsion
Aktuar risklar, zarar ko'rsatkichlarining oshishi va favqulodda (katastrofik) hodisalar yuz berishi bilan bog'liq xavflar	Likvidlilik	Kredit riski
Likvidlilik	Cash-flow yetarli emasligi	Siyosiy risk
Xatolar va operatsion xarajatlarning oshishi bilan bog'liq xavflar	Foiz stavkasi	Menejment riski
Zaxiralarning yetarli darajada shakllantirilmashligi bilan bog'liq xavf	Ishtirok	Uchinchi shaxslar oldidagi majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq xavf
Qayta sug'urta	Hosilaviy moliyaviy instrumentlar bilan bog'liq xavflar	Soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar bilan bog'liq xavf

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, texnik risklar qatoriga sug'urta kompaniyasining sug'urta to'lovlari bo'yicha majburiyatlarini bajarish uchun yetarli mablag'ga ega bo'lmashligi bilan bog'liq xavflar kiradi. Investitsion risklar esa investitsiya faoliyati natijasida yuzaga keladigan mablag' yetishmovchiligi xavfini o'z ichiga oladi. Notexnik risklar esa, bir tomondan, texnik va investitsion risklar bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan xavflarni, ikkinchi tomondan esa sug'urta faoliyatidan tashqari operatsiyalar bilan bog'liq xavflarni qamrab oladi.

Hozirgi bosqichda yangi Direktivani moslashtirish uchun zarur bo'lgan infratuzilmani shakllantirish hamda risk-menejment tizimini takomillashtirishga mas'ul ichki bo'linmalar faoliyati tahlili shuni ko'rsatadiki, bozor sharhlari va modellar tobora ko'proq Solvency II standartining "ustunlari" (pillars) doirasidagi batafsil talablarni o'rganishga yo'naltirilmoqda. Ayniqsa, ichki modellarni ishlab chiqishning texnik jihatlar, kapitaldan samarali foydalanish, risk-menejment instrumentlarini amaliyotga joriy etish va ularni ichki muhit sharoitlariga moslashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa xodimlar faoliyatidagi xatolar, jarayonlar yoki axborot tizimlaridagi nosozliklar bilan bog'liq operatsion risklarning ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Shu bilan birga, sug'urta kompaniyalari hisobga oladigan risklar doirasi ularning biznes modeli, faoliyat yuritayotgan yurisdiksiyasi hamda investitsiya portfeli tuzilmasiga qarab farqlanadi. Xalqaro Sug'urta Nazoratchilari Assotsiatsiyasi asosiy risk toifalari sifatida zararlar va xarajatlarni, investitsiya bozori risklari, kontragentning to'lovga layoqatsizligi, investitsion kredit risklari, shuningdek operatsion va likvidlik risklarini ajratib ko'rsatadi.

So'nggi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar moliyaviy inqiroz saboqlari asosida sug'urta kompaniyalari to'lovga qobiliyatligiga ta'sir ko'rsatgan muhim omillarni aniqlab berdi. Mutaxassislar yetarli kapitalga ega bo'lish hamda manfaatdor tomonlar va menejment manfaatlarini uyg'unlashtirish bilan bir qatorda strategik risklarni boshqarish muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlashmoqda. Strategik risklar biznes-modelning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, kompaniya qiymatining pasayishiga va natijada uning kapitallashuv darajasiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan omillar bilan bog'liqdir. Bunday risklar qatoriga raqobat muhitining o'zgarishi, qonunchilikdagi yangiliklar, texnologik siljishlar hamda bozor muvozanatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa omillar kiradi.

Tadqiqotda ta'kidlanishicha, aynan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sug'urta kompaniyalarining boshqa moliya bozori segmentlari, xususan bank tizimi barqarorligi bilan qanchalik darajada o'zaro bog'liqligini anglashga muhim turtki bo'ldi. Ushbu o'zaro bog'liqliklar shakllangan sharoitda kapital yetarliligini protsiklik tartibga solish hamda hosilaviy moliyaviy instrumentlar keng qo'llanilayotgan muhitda risk darajasini pasaytirish murakkab vazifaga aylanmoqda. Shu bois, bir tomondan, turdosh moliya sektorlari bo'yicha ishonchli ma'lumotlarga asoslangan ko'rsatkichlarni chuqur tahlil qilish zarurati, ikkinchi tomondan esa anderrayting va investitsiya siyosatida ehtiyotkorlik tamoyillarini ustuvor qo'llash muhimligi alohida qayd etiladi.

Sug'urta tashkiloti faoliyatiga xos bo'lgan barcha turdagi risklar yakuniy moliyaviy natijaning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ular kompleks risklarni boshqarish modeli tarkibida inobatga olinishi lozim. Sug'urtalovchining moliyaviy natijasi sug'urta faoliyatidan olingan daromadlar hamda amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan sug'urtaga aloqador bo'lmagan operatsiyalar saldosi yig'indisi sifatida shakllanadi. Ushbu daromadlar tarkibida investitsiya faoliyatidan tushumlar muhim ulushni egallaydi.

Demak, sug'urta kompaniyasining moliyaviy ko'rsatkichlari nafaqat ichki boshqaruv jarayonlari, balki tashqi iqtisodiy muhit ta'siri ostida ham shakllanadi. Shu munosabat bilan sug'urta tashkilotlarini boshqarish tizimi,

3 On solvency, Solvency Assessments and Actuarial issues asosida muallif tomonidan tuzilgan



jumladan ularning moliyaviy barqarorligini baholash mexanizmlari, noaniqlik sharoitida faoliyat yurituvchi va turli iqtisodiy zarbalarga sezgir murakkab dinamik stoxastik tizimlarni tahlil qilishga asoslangan zamonaviy konsepsiya va metodologiyalarga tayanishi lozim.

Bunday sharoitda sug'urta tashkilotining belgilangan moliyaviy va me'yoriy talablarga muvofiqlik ehtimolini miqdoriy baholash imkonini beruvchi umumlashtiruvchi ko'rsatkichdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Sug'urta tashkilotlarining to'lovga qobiliyatligi va moliyaviy barqarorligini baholash hamda tartibga solish sohasida shakllangan yondashuvlarning evolyutsion rivojlanishi ma'muriy usullardan bosqichma-bosqich voz kechilib, moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarga asoslangan riskka yo'naltirilgan tartibga solish modeliga o'tilayotganini ko'rsatmoqda. Zamonaviy tartibga solish konsepsiyasi sug'urtalovchilar faoliyatiga ta'sir etuvchi noaniqlik omillarini tizimli aniqlash, ularni miqdoriy baholash va doimiy monitoring qilish tamoyillariga asoslanadi.

Moliya bozorlarining murakkablashuvi, o'zgaruvchanlik darajasining ortishi, moliyaviy instrumentlar ko'lamining kengayishi hamda texnologik taraqqiyot sug'urta sektorining faoliyat muhitini tubdan o'zgartirmoqda. Bunday sharoitda sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligi nafaqat sug'urta operatsiyalari natijalari, balki investitsiya siyosatining samaradorligi, korporativ boshqaruv sifati, risk-menejment tizimining rivojlanganlik darajasi hamda tashqi makroiqtisodiy zarbalarga moslashuvchanlik qobiliyati bilan ham belgilanadi.

Makroprudensial tartibga solish amaliyoti va xalqaro standartlar, jumladan Solvency II talablari, strategik, operatsion, bozor, kredit va texnik risklarni yagona boshqaruv tizimiga integratsiya qilish zarurligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, kapital yetarililigini baholash va to'lovga qobiliyatlikni ta'minlash jarayonlarida dinamik stoxastik tahlil tamoyillariga asoslangan kompleks modellarni qo'llash alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash zamonaviy sharoitda riskka asoslangan, integratsiyalashgan boshqaruv tizimiga o'tishni taqozo etadi. Mazkur tizim doirasida risklarning miqdoriy baholanishi strategik va operatsion qarorlar qabul qilishning muhim instrumentiga aylanadi, moliyaviy barqarorlik esa ichki boshqaruv mexanizmlari hamda tashqi iqtisodiy muhit o'rtasidagi muvozanatli o'zaro ta'sir natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- sug'urta tashkilotlarida risklarni aniqlash, baholash va monitoring qilish jarayonlarini yagona integratsiyalashgan risk-menejment tizimi asosida tashkil etish;
- Solvency II talablariga mos ravishda kapital yetarililigini baholashning ichki modellarini bosqichma-bosqich joriy etish;
- makroprudensial yondashuv asosida sug'urta sektorida tizimli risklarni monitoring qilish va stress-test amaliyotini kengaytirish;
- sug'urta kompaniyalarida korporativ boshqaruv sifatini oshirish hamda risk madaniyatini shakllantirish;
- noaniqlik sharoitida qaror qabul qilishda dinamik stoxastik modellash tizimidan foydalanishni kengaytirish.

Mazkur yo'nalishlarni izchil amalga oshirish sug'urta tashkilotlarining to'lovga qobiliyatligini mustahkamlash, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda sug'urta bozorining uzoq muddatli va barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tereshchenko N.V., Yashin N.S. Sifat menejmenti usullari. — 2006. — №4. — 19–23-betlar.
2. Jurov V.A. Korxonalarning bankrotligini prognozlash modellari ishlab chiqish jarayoni (Yaponiya ommaviy kompaniyalari misolida) // Moliyaviy menejment. — 2007. — №1. — 3–7-betlar.
3. Kirillova N.V. Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi va to'lovga layoqatsizligi // Sug'urta ishi. — 2001. — №5. — 17–20-betlar.
4. Burlachkov V.K. Moliyaviy vositachilik rivojlanishining omillari va tendensiyalari. — 2018. — 19-jild. — №4. — 1123–1134-betlar.
5. Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki. Solvency II konsepsiyasi bo'yicha materiallar. — Elektron manba: www.cbr.ru/Content/Document/File/41412/concept_solvency_II.pdf
6. Rossiya Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi (RANEPA). Tahliliy materiallar. — Elektron manba: <http://igsu.ranepa.ru/analytics/p25099/>
7. European Parliament and Council. Directive 2009/138/EC (Solvency II). — Official Journal of the European Union, 2009.
8. International Association of Insurance Supervisors (IAIS). Insurance Core Principles and Common Framework for the Supervision of Internationally Active Insurance Groups. — Basel, 2019.
9. Cummins J.D., Weiss M.A. Systemic Risk and the U.S. Insurance Sector // Journal of Risk and Insurance. — 2014. — Vol. 81. — No. 3. — P. 489–528.
10. Swiss Re Institute. Global Insurance Review and Outlook. — Zurich, 2023.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
